

## INKLYUZIV TA'LIMDA TARBIYA MASALALARI

*Yo'ldosheva Sarvinoz*  
*Qo'qon universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Bugungi kunda "Inklyuziv ta'lim" ning rivojlanishiga alohida ahamiyat qaralmoqda. Inklyuziv ta'limda bolalarni nafaqat ta'lim, balki tarbiya jihatidan ham rivojlantirib borish xisobga olinmoqda. Ularga ta'lim va tarbiyaning kerakligi, tarbiyada pedagog, ota-ona, mahalla, jamiyat va boshqa ta'limiy tashkilotlarning o'rnini tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** Jamiyat, ta'lim, YUNICEF, inklyuziv ta'lim va tarbiya

**Аннотация.** Сегодня особое значение придается развитию «Инклюзивного образования». В инклюзивном образовании развитие детей рассматривается не только с точки зрения обучения, но и с точки зрения воспитания. Исследована необходимость образования и воспитания, роль педагога, родителей, окружения, общества и других образовательных организаций в образовании.

**Ключевые слова:** Общество, образование, ЮНИСЕФ, инклюзивное образование и обучение

**Abstract.** Today, special importance is attached to the development of "Inclusive education". In inclusive education, development of children is considered not only in terms of education, but also in terms of upbringing. The need for education and upbringing, the role of pedagogue, parents, neighborhood, society and other educational organizations in education was researched.

**Keywords:** Society, education, UNICEF, inclusive education and training

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zahirida, eng avvalo, kelajak avlodning barkamol bo'lib ulg'ayishi, hech kimdan kam bo'lmay dunyo arenalarini zabt etishga qodir farzandlar bo'lib yetishishi kabi dolzarb masalalarni hal etish turadi. Ayniqsa, yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan, nogiron, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ijtimoiy himoyasi hamisha davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblangan. Ushbu vazifani amalga oshirish borasida O'zbekiston Respublikasida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan kishilarning huquq va erkinliklarini, teng imkoniyatlarini ta'minlash, turmush faoliyatidagi cheklanish, chegaralarni bartaraf etish, ta'limni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuv, uning sifati va samaradorligini oshirish, jamiyatda aholining turli qatlamlari uchun ta'limning uzviylik va uzluksizligini ta'minlash borasida talaygina ishlar amalga oshirib borilmoqda. Bolalik bosqichida inson psixologo-pedagogik jihatdan kuchli ta'sirlanadi.

O`sb kelayotgan bola organizmi, uning miya tuzilishining ichki imkoniyatlari chegarasizligini inobatga olgan holda tashkil etilgan korreksion-pedagogik, psixologik hamda tibbiy ishlar bolaning birlamchi nuqsonini kamaytirib, ikkilamchi nuqsonlarning oldini olishga yordam beradi. Bularning hammasi rivojlanishida nuqsoni bo`lgan bolani mustaqil, hech kimga qaram bo`lmagan holda hayot kechirishga tayyorlash omillaridir.

Ta`lim- bilim berish, malaka va ko`nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta`lim jarayonida ma`lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta`lim tor ma`noda o`qitish tushunchasi tushuniladi. Lekin u faqat turli tipdagi o`quv yurtlarida o`qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma`lumot berish jarayonini ham bildiradi. Ta`limda nafaqat jamiyatni, atrof- muhitni, balki, shaxs o`zini-o`zi kashf qilishi, o`z menini topishi ham mumkin.

Ko`pchilik imkoniyati cheklangan farzandlarimiz, yosh- qari insonlar ta`lim olishi kerak. Inklyuziv ta`lim- imkoniyati cheklangan bolalarning sog`lom bolalar bilan birgalikda ta`lim olishi. Bugungi kunda bu ta`limga ehtiyoji bor bolalar har qadamda topilishi turgan gap. "Inklyuziv ta`lim" 2019- yil 29- apreldagi "O`zbekiston Respublikasi xalq ta`limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risidagi PF-5712-son farmoniga muvofiq O`zbekistonda inklyuziv ta`limni rivojlantirish, alohida ta`lim ehtiyojlari bo`lgan bolalarga ta`lim- tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko`rsatilgan ta`lim xizmatlari sifatini yaxshilash" qarori tasdiqlandi. Bu qarorni amalga oshirish maqsadida qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Dastlab, respublikamizning 5 ta hududida tajriba- sinov maydonchalari tashkil qilindi. Bu hududlar: Toshkent, Xorazm, Samarqand, Namangan va Surxandaryo viloyatlarida mujassamdir. Bu sinov maktablariga juda ko`plab o`quvchilar jalb qilingan. Inklyuziv ta`limni joriy qilinishi, ko`plab yurtsohlarimiz uchun qulay bo`ldi. Negaki, oddiy xalq imkoniyati cheklangan farzandlarini maxsus maktablarga bera olishmas, iqtisodiy tomonlama ularni ta`lim olmasdan uyda olib o`tirishga majbur bo`lishar edi. Bu esa ko`pchilik bolalarni ta`lim olishidan mahrum bo`lishi demakdir. Inklyuziv ta`lim bolalarni nafaqat ta`lim, balki, tarbiya jihatidan ham unib-o`shishiga turtki bo`ladi. Chunki, inson tu`gilishi bilan oila degan ne`matga duch keladi. Oila a`zolarimiz bizga ta`lim bera olmas, ammo, tarbiya, urf-odat haqida tushunchalar bera olishi mumkin. Ular bizga, tug`ilgan onimizdan boshlab o`zimizni tanigunga qadar avaylab asrab kelishadi. So`ngra esa biz o`zimizni tanishimizni boshlagan ondan odob-axloq tushunchalarini uqitib kelishadi. Biz oiladan so`ng jamiyatdan tarbiya tushunchasini shakllantiramiz. Aytishadiku; "Bitta bolaga yeti mahalla ota-ona" deb. Mahallaning ham hayotimizda o`rni bo`lakcha. Mahalladan so`ng jamiyat bizga odob-axloq tushunchalaridan ahyotiy dars beradi. "Birini ko`rib fikr qil- birni ko`rib shukr

qil” deganlaridek, inson yon atrofiga qarab hulosa chiqaradi. Jamiyat-kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmui. Jamiyatdagi hamma narsa muayyan faoliyat jarayonida amalga oshadi. Inklyuziv ta`lim joriy qilishdan maqsad ham imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga kirishi, jamiyatda o`z o`rnini topishidir.

Yuqorida aytib o`tganimizdek, inklyuziv ta`lim bilan tarbiya masalalari juda ko`plab oqsoqliklarga duch kelishi mumkin. Bolaning tarbiya va o`quv faoliyatida orqada qolishi uning psixik jarayoniga ham bo`g`liq. Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiya masalasida, ularga nafaqat pedagog balki, maxsus pedagog, ota-ona, oila, do`stlari, mahalla vat a`limiy va xalqaro tashkilotlar ko`maklashadi. Xalqaro tashkilotlardan: BMT, YUNESKO, UNISEF va shu kabi qator tashkilotlar inklyuziv ta`limga bolalarni jalb qilish, ularda ta`lim va tarbiya ko`nikmalarini shakllantirish uchun kerakli chora va tadbirlarni amalga oshirib kelishmoqda. YUNICEF- bu tashkilot mamlakatimizdagi bolalarni sog`lig`ini saqlash, Xalqaro bolalar jamg`armasi tashkilotidir. YUNICEF tomonidan butun dunyoda inklyuziv ta`limga imkoniyati cheklangan bolalarni jalb qilish to`g`risida tadbirlar tashilantirilib kelmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalar ta`lim- tarbiyasi bilan shug`ullanishi uchun ham maxsus o`qituvchilar birlashtirilib, ularga yordam berib kelinmoqda. Tarbiya- shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma`naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayondir. Jamiyatda yashashi uchun zarur bo`lgan xususiyatlarga ega bo`lishini ta`minlash yo`lida ko`riladigan chora tadbirlar yig`indisi.

Tarbiya insonning insonligini ta`minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Imkoniyati cheklangan bolalarda ham ta`lim birgalikda tarbiyani ham rivojlantirish zarur. O`zlarida bo`lgan ishonch, jamiyatda o`z o`rnini topa bilish, o`zini kashf etish, ma`daniy, ma`rifiy hayotida faol ishtirokni ta`minlashga qaratilgan tushunchadir tarbiya. Shu munosabati bilan, inklyuziv ta`limda tarbiyaning o`rni bo`lak. Ammo bu inklyuziv ta`limda boshlang`ich ta`lim o`qituvchidan tashqari unga tarbiyachi yo`llanadi. Tarbiyachi asosan, inklyuziv talimga ehtiyoji bor o`quvchilarni tarbiyasi bilan shug`ullana oladi. Bunda xuddi sog`lom bolalarning darsliklarida qo`llanilgan “Tarbiya” kitoblari singari o`zlarining maxsus kitob va qo`llanmalari mavjud. Inklyuziv ta`limda tarbiya masalalariga jiddiy qaralishi va e`tibor berilishi lozim.

Xulosa o`rnida shuni aytishimiz joizki, imkoniyati cheklangan o`quvchilar ta`limining keng ko`lamlilik va serqirrasiligini hisobga olgan holda umumiy o`rta ta`lim jarayonini tashkil etish talab qilinadi. Ularda me`yorda rivojlanuvchi tengdoshlari bilan qiyoslagan holda umumiy o`rta ta`lim jarayonida hayot uchun zarur bo`lgan bilim, ko`nikma, malakalarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. O`quv jarayonida imkoniyati cheklangan o`quvchilarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda bilimlarni taqdim etish asosida o`z tengdoshlari va yaqinlari bilan birgalikda hayotiy ko`nikmalarni egallashlari uchun sharoit yaratishdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R. Sh. Shomaxmudova. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma. T-2011.
2. МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ журнаli.
3. SI Jumanova, G Mullaboyeva. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda Sharq va G'arb allomalarining qarashlaridan foydalanish Educational Research in Universal Sciences 2 (14), 445-451
4. SI Jumanova, D Asqarova.(2023). Maktabgacha ta'limda tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining kreativ fikrlashini o'stirishda stem ta'limining o'rni Educational Research in Universal Sciences 2 (15), 377-381
5. Jumanova , S. (2023). AUTUMN MOTIF IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Scientific Journal of the Fergana State University, 28(2), 29.
6. Jumanova, S. (2022). Landscape in Usmon Azim" Bakhshiyona". EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 169-172.
7. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARGA TA'LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.
8. Ikromjonovna, J. S. (2023). UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA JORIY ETILGAN YANGI DARSLIKLARNING AFZALLIK JIHLTLARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 661-663.
9. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirishda ertaklarning o'rni. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 806-808.
10. Gadjeva G. Vozmojnosti primeneniya IKT v uchebnom protsesse. // Uchebnyy reja. Baku, 2015 yil, №1. 4, s. 60-61